

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Qarshi davlat universiteti
Roman – german tillari kafedrası
Shukurova Shirin Boyqobilovna**

**“5220100 - fransuz tili” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun “Onore de Balzak asarlari
o'zbek tilida” (“Sag'ri teri tilsimi” romani misolida)
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'q. I. Sultonova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dikani:

_____dots. D.jo'rayev.

“ _____ ” _____ 2013 yil

Qarshi 2013-yil

M u n d a r i j a

Kirish.....	3
I.Bob. Onore de Balzak hayoti va ijodi.....	7
1.1. Onore de Balzak asarlarida undov so'zlarning ishlatilishi.....	25
II.Bob. Adibning “Sag’ri teri tilsimi” romani o’zbek tilida.....	28
2.1. Onore de Balzak asarlarida portret va peyzaj tasviri.....	39
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	52

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni talab qilish borasida keng qamrovli islohaatlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim omil bo'lmoqda. Ushbu qarorda chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg'or uslublarni joriy etish, chet tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizasiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart – sharoitlar va imkoniyatlar yaratish bilan bog'liq keng ko'lamli vazifalar belgilangan.

Vatanimizda yoshlarning o'z iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun yaratilgan imkoniyatlar, g'amxo'rliklar, ayniqsa, Yurtboshimiz Islom Karimovning har bir ma'ruzasida yoshlarga bildirilayotgan ishonchli, porloq kelajak sari ruhlantiruvchi da'vatlari yoshlarni yangi yuksak marralarni egallashga undamoqda. Yoshlarga bildirilayotgan bunday ishonch, albatta ularga katta mas'uliyat yuklaydi. Dunyo tamadduniga o'lgan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz ishining davomiyligini ta'minlashimiz, ular qoldirgan noyob merosni o'z ilmiy izlanishlarimiz bilan boyitishimiz Vatanimiz taraqqiyotiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shishimiz uchun barcha sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Biz yoshlar ona – Vatanga sadoqatli farzandla¹r bo'lishimiz ham farz, ham qarzdir. Buning uchun biz vaqtdan oqilona

¹Karimov I.A. O'zbekiston "Xalq so'zi" gazitasi 2012-yil 10 dekabr chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida.

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, "O'zbekiston", 2011 y. –B.90.

foydalanishimiz, g'ayratli – shijoatli bo'lishimiz, doimo o'z faoliyatimiz natijalarini tandiqliy sarhisob qilib borishimiz lozim.

Prezidentimiz Islom Karimovning “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida aytib o'tganlaridek ta'lim – tarbiya sohasidagi ishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga hissa qo'shyapti.

Hozirgi davr talabi xorijiy tillarni mukammal o'rganish va uni hayotga tadbiiq etishga qaratilgandir. Ayniqsa dars sifat darajalarini samaradorligini oshirish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarining dars jarayonida qo'llash, nemis tilini chuqur o'rganish uchun zamin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda Respublikamizdagi (oliy, o'rta maxsus, kasb – hunar, umumta'lim maktablari) ta'lim tizimida “Innovatsion pedagogika”, “Innovatsion texnologiyalar”, “Interfaol metod va usullar”, “Yangi pedagogik texnologiyalar” kabi ko'plab yangi tushunchalar kirib kelmoqda.

Hozirgi kun talabasi faqat bilim olibgina qolmay, balki o'z ustida ishlab, bilimni to'g'ri baholay olishni ham o'rganishi kerak, chunki bugungi kun talabasi mustaqil O'zbekistonning umidli, erkin fikrlovchi, o'z fikriga ega bo'lgan intellektual salohiyatli avlodidir.

Davlatimiz, xususan Prezidentimizning ta'lim sohasiga, chet tillarni o'qitish va o'rganishga nisbatan alohida e'tibor qaratishi tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida tilshunos olimlarimiz oldiga yanada mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalarning dolzarbligi haqida gapirib, yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: “... zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo'nalishi jahon miqyosida chiqqan tillarni, ayniqsa ilg'or texnikaviy tafakkur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis va ispan tillarini va boshqa tillarni

o'rganishni butun choralar bilan rag'batlantirishimiz lozim"². Hali mamlakatimiz mustaqillikka erishmasdanoq Davlatimiz rahbari I.A.Karimov yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularda yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, respublikaning xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartirib bo'lmasligini ta'kidlab o'tgan edi ³.

Insoniyat hayotida yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xorijiy tillarni nazariy jihatdan o'rganish barcha talabalarning bilim saviyasini oshiradi. Professor A.A.Abdualazizov ta'kidlaganidek, "... til dalillarini ongli ravishda o'zlashtirish, nazariy bilimlar ustida ongli ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ham o'z ona tilimizni, ham xorijiy tillarni amaliy o'rganishga yordam beradi"⁴.

Dunyoda rivojlanmaydigan narsaning o'zi yo'q, chet tillar ham bundan mustasno emas. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa va tizim sifatida kundan-kunga o'zgarib takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bu hodisani o'rganuvchi fan ham katta odimlar bilan ilgarilab ketmoqda. O'zligimizni anglash, ichki hissiyotlarimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga, uning bizga bergan imkoniyatlariga bog'liq. Jamiyatni jamiyat, uning rivojini, gullab - yashnashini, taraqqiyotini ta'minlovchi vosita bu - tildir.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Darhaqiqat, o'zek-fransuz adabiy hamkorligi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shubhasiz, O'zbekiston Respublikasining Fransiya Respublikasi bilan o'rnatilgan

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, "O'zbekiston", 2011 y. –B.90.

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, "O'zbekiston", 2011 y. –B.137.

⁵ Abdulazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. –T. "O'zbekiston", 1992, -B. 5-6.

bevosita aloqalari barcha sohalardagi hamkorlikning asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston-Fransiya munosabatlari to'g'risida shunday degan edi: "Munosabatlarimizning bugungi rivoji uning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi. Hozirgi paytda, madaniy sohalarda aloqalarimiz kengayib borayapti. Albatta hali foydalanilmagan imkoniyatlar nihoyatda ko'p".

Meni ishimning ham mavzusi dolzarb bo'lib unda taniqli fransuz yozuvchisi Onore de Balzakning asarlari va ularning tarjimasiga to'xtalib o'tdim. Tarjima jarayonida juda ko'p yangi adabiyotlardan, lug'atlardan foydalangan holda o'z fikr mulohazalarimni ko'rsatib berishga harakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari: "Janob Balzak barcha buyuklarning buyugi, sara insonlarning sarasi edi... u yozib qoldirgan asarlar butun bir kitobni zamonamizni to'liq va yorqin aks ettiruvchi hayot sahifasini tashkil qiladi degan edi mashhur adib Viktor Gyugo". Balzak adolatsiz jamiyat „yuksak insonlarni ham ma'naviy majruh qilishini, insoniylikka zid bo'lgan iqtisodiy islohat va siyosiy nayranglar shaxs va jamiyatni tannazzulga olib borishini yuksak badiyat va teran ruhiy tahlil bilan yoritib bergan. Ishni yoritishda tarjimaga oid fransuz, rus, o'zbek tilshunoslarining kitoblaridan foydalandik va rejamizga ko'rsatilgan maqsadga erishishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Dunyo ilmining barcha sohalarida bo'lgani kabi filologiya, xususan adabiyotshunoslik sohasida ham biror bir tadqiqot yoki yangilik yaratilar ekan, albatta u ishning o'z obyekti va predmeti mavjud bo'ladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining mavzusi "Onore de Balzak asarlari o'zbek tilida" bo'lganligi ham bu ishning obyekti, asarlarida qahramonlarning qay darajada hayotiy tasvirlanishi va yozuvchi ushbu asarlarida qanday usul va uslublardan foydalanganligini tahlil qilish ushbu tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Malakaviy ishda fransuz, rus va o'zbek olimlaridan Barberis, A.Bellesort, E.P.Kuchbarskaya, K.A.Ganshina, L.V.Sherba, N.T.Bezbeseenaya, T.A.Danchinko, H.Ibragimov, A.Nishonov, E.Soatjonov, A.Azizov, Q.Qayumov kitoblari manba qilib olindi. Shuningdek, ishni chiroyli chiqishiga alohida e'tibor berildi.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi: ishning yangiligi shundan iboratki, asardan parchalar tarjima qilinayotganda boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning tarjimada ishlatilishi va ularning yangidan yangi ma'no berishiga qaratilgandir.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi: Onore de Balzak ijodi va faoliyatini o'rganishda hozirda tarjimashunoslik ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan o'zbek olimlaridan: O.G'ofurov, A.Abdullayeva, T.Davron, M.Mahmudov, M.Mirzoidov, S.Muhammadjonov, Q.Musayev, S.Salomova, Y.Egamova, S.Azamov. Rus olimlaridan E.Aznaurova, N.G.Yakovlevoy, Y.Verxovskaya, B.A.Grifsova, N.Vladimirova, T.Oragbeletze, V.Pastirnak, N.Xolotkovskiylar tomonidan o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati: Malakaviy ishni yozish jarayonida yirik olimlar va mutaxassislar tajribasiga tayangan holda asardan keltirilgan parchalarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki mazkur ishimizdan kelgusida litsey, kollej va maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga bilim berishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi ikkita paragrafni o'z ichiga olgan ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning umumiy hajmi 50 betni tashkil etadi.

I, bob. Onore de Balzak hayoti va ijodi

“Insoniyat jamiyati o‘z tarixini o‘zi yozadi, men faqat uning kotibiman”, degan edi buyuk fransuz adibi Onore de Balzak. Darhaqiqat, insoniyat tarixini bitishning turli xil yo‘l va yo‘sinlari bor. Birovlar tarixni toshlarga muhrlab, o‘lmas obidalar yaratadi, birovlar umri uzoq imorat va inshootlar quradi, yana shunday “kotiblar” ham borki, ular bashar tarixini insonlarning qalblariga muhrlaydi. Onore de Balzak ta’biricha, “ko’ngil kitoblari”ga aylangan so’z san’atkorlari jahonda u qadar ko’p emas. Yunon adabiyotining 2500 yillik tarixida Xomer, Esxil, Evripid, Sofokl va Aristofanni, Rim adabiyoti ming yillar davomida Ovidiy, Vergiliy, Goratsiy, Katull kabilarni dunyoga yetkazgan bo’lsa, temuriylar atiga II asr davomida Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Husayin Boyqaro, Bobur kabi ulug’ adiblarni yetishtirdi. Rus adabiyotining “oltin davri” (XIX asr) jahon madaniyatini Pushkin, Lermontov, Gogol, Turgenev, Dostoyevskiy, Tolstoy va Chexov kabi so’z san’atkorlari bilan boyitdi. Shu kabi fransuz adabiyoti ko’tarilish davrlaridan biri sanalgan XIX asrda Gyugo, Zolya Dyuma, Merime, Flober, Mopassan, Stendal, Jorj Sand, Myusse kabi bir-biriga o’xshamagan daho san’atkorlarni yetishtirib berdiki, ular qatorida Onore de Balzakning o‘z o‘rni va o‘z so‘zi bor. Shu davr fransuz adabiyotida ham butun dunyo mumtoz adabiyotidagi kabi jamiyatning turli qatlamlarini, barcha ijtimoiy tabaqalar hayotini teran tahlil qilgan, ularning ruhiy olami, tabiyati, fe’l-atvoridagi go’zal, yuksak va shuning bilan birga xunuk jihatlarni ham izchil yoritgan adib Onore de Balzak sanaladi. Adib qat’iyatli yoshlarni ham yo’ldan uradigan, mol-dunyoga sig’inish degan dahshatli ajdahoning halokatli changaliga tushgan kishilarning fojiiyalarini haqqoniy ko’rsatib bera oldi. Aniqrog’i, inson ma’naviy tanazzulining

barcha muharriklari-harakatlantiruvchi kuchlarini, nafs ko'chalarini-yuqori aqliy nayranglarini zarurat va tasodiflarining betakror evrilishlarini ochib berdi.

Fransuz adabiyotining buyuk siymolaridan Onore de Balzak (Honore de Balzac) ijodida tanqidiy realizm o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.

1799 yilning 20 mayida Fransiyaning Tur shahrida chinovnik oilasida dunyoga kelgan Onore de Balzak (A. C. Pushkinning tengdoshi) Yevropa va Fransiya tarixining eng dolg'ali davrlarida, siyosiy-iqtisodiy talotumlar ichida yashadi.

U tug'ilmasdan o'n yil avval 1789 yilda insonlik qadr-qimmati uchun harakat boshlagan fidoyilar fransuz zulm-istibdodining qo'rg'oni bo'lgan, dahshatli tosh qamoqxona-Bastiliyani hujum bilan qo'lga oldi va millat ozodligi uchun kurashgan jabrdiyda ziyolilar, hur fikrli siyosiy arboblari ozod qilindi. Onore de Balzak o'smirlik va yoshlik chog'larida Napoleon yurishlarini ko'rdi, fransuzlarning milliy iftixori uyg'ondi.

Yosh Balzak o'rta ma'lumotni Parij pansionlaridan birida olgach, ota-onasining xohishi ila huquq maktabiga o'qishga kiradi. Ayni paytda, Sorbonna universitetiga ixtiyoriy qatnab adabiyotdan ma'ruzalar tingladi. Biroq, u bor talantini va kuch g'ayratini badiiy ijodga bag'ishlaydi.

Yozuvchilikka bo'lgan istagining xomxayol emasligini isbotlashga va o'z orzusini ro'yobga chiqarishga intilgan Balzak otasidan ikki yilga muhlat so'rab Parijga qoladi. Bu payt istefoga chiqqan janob Fransua Balsa (yozuvchining otasi) oilasi bilan Parij chekkasidagi Vilparizi shaharchasiga ko'chib kelgandi. Deyarli barcha kunlarni tragediya janrining qalam sohiblari Piyer Kornel va Jan Rassin ijodiga taqlidiy yozilgan "Kromvel" nomli sheri tragediyasini yozib tugallaydi. Baxtga

qarshi yozuvchining ilk asari unga muvaffaqiyat keltirmadi. Lekin yozuvchi umidsizlikka tushmay, adabiyot bilan zo'r berib shug'ullandi. U 14-16 soatlab ishlab zamonasining ajoyib san'atkor darajasiga ko'tarildi.

Yosh Balzakning o'zi ham Parijga bir dunyo orzular bilan kelgan sodda qishloq yigiti aslzodalar davrasiga kirish, ismi-sharifga oliy nasablikni bildiruvchi kichkina "de*" qo'shimchasini olish uchun hashamatli koshonalarda yashab, mashhur va obro'li zotlarni mehmon qilib, shuhrat qozonish yo'lida tinmay ishladi. Lekin Onorega juda qiyinchilik bilan erishgani aslzodalik belgisi ("de" qo'shimchasi) emas, balki Alloh belgan iste'dod va zakovati tufayli yozilgan shoh asarlari shon-shuhrat keltirdi, jahonning ko'p tillarida tarjima qilindi.

Balzalkning yozuvchi sifatida nomini dunyoga tanitgan va shuhrat keltirgan, Balzak taxallusi bilan 1829 yilda bosilib chiqqan "Shuanlar" (les Chouans, ou la Bretagne en 1799) asaridir. Balzak o'zining bu asari bilan romantizm oqimidan chekinib, tanqidiy realizm tomon burilgandi. "Shuanlar"da 1799 yil Fransiyaning Breton viloyatida Respublikaga qarshi boshlangan isyonni bostirish voqealari tasvirlangan. Yozuvchi romanda oddiy xalq vakillarini bosh qahramon qilib olarkan, ularning o'z vatani Fransiya uchun eng og'ir damlarda ham jon fido qilib kurashganliklarini yuksak iqtidor bilan tariflaydi.

30 yillarning birinchi yarmida Balzak Fransuz jamiyati turli tabaqalari vakillarining hayotini tasvirlovchi "Gobsek"(Gobseck), "Sag'ri teri tilsimi" (Le Peau de Chagrin), "Polkovnik Shaber" ("Le colonel Chabert"), "Qishloq Vrachi" ("Le médecin de Campagne"), "Yevgeniya Grande" ("Engénie Grandet"), "Gorio ota" ("Le Père Goriot"), "Yo'qotilgan illyuziyalar" ("Illusions perdues"), "Dehqonlar" ("Les paysans") singari roman va qissalari birin-ketin bosilib chiqa

*de – oily nasablikni bildiruvchi bilgi

boshladi. Bu yillar Onore de Balzak ijodining eng gullagan davri bo'lib, u yaratgan yuqoridagi asarlar o'z muallifini tanqidiy realizm adabiyotining shohsuppasiga olib chiqqan edi.

1834 yilda Balzak barcha yozgan asarlarini 100 jildga birlashtirib, ularga "Inson komediyasi" ("La comédie humaine") degan umumiy nom berdi. "Inson komediyasi" uchta asosiy bo'limdan: "Xulqlar haqida etyudlar" ("Etudes des mœurs"), "Falsafiy etyudlar" ("Etudes philosophiques"), "Analitik etyudlar" ("Etudes analytiques").

Inson komediyasi yozuvchi plani bo'yicha 143 ta roman va novellalardan tashkil topishi kerak edi. Biroq yozuvchi o'zining 20 yilga yaqin ijodi davrida ulardan 97 tasini yozishga ulgurdi. "Inson komediyasi" yozilgan tarixiy davr chegarasi 1830-1848 yillarni, ya'ni iyul monarxiyasi davrini qamrab oladi. Lekin Balzak asarlari o'sha davr mashhur kishilari ko'rsatganidek, restavratsiya davri (1815-1830) hayotini ham aks ettiradi. Bu vaqtda Fransiyada davlat tepasiga yirik moliya burjuaziyasi kelgan, dvoryanlar bilan aristokratlar tarix sahnasidan surib chiqarilayotgan edi. "Real munosabatlarni chuqur tushunishi bilan ajralib turgan Balzak, o'sha davr zamonasining ana shu ijtimoiy jarayonlarini o'z asarlarida katta mahorat bilan aks ettiradi".

O'zini "ijtimoiy fanlar doktori" deb hisoblagan Balzakning ulkan epopeyasi "Inson komediyasi"da ikki mingdan ortiq personaj qatnashadi.

Buyuk adib o'zining muazzam "Inson komediyasi"da yozgan so'z boshisida shunday ta'kidlagan edi: "Fransuz jamiyati o'zi tarixining yaratuvchisi bo'lsa, men esa uning kotibi" deb atadi. Bu bilan yozuvchi yirik epopeyasida Fransiya hayotining barcha tomonlarini yoritmoqchi ekanligini aytadi.

Darhaqiqat, Balzak o'z oldiga qo'ygan bu ulkan vazifani aytganidek soz ado etoldi, o'zi yashagan davr burjua Fransiya Fransiya tarixini badiiy syujetlarida ravshan tasvirlab berdi.

Uning tarkibidagi asarlarning qahramonlari dastlab jinoyatchi, qamoqda uzoq o'tirgan, so'ng o'tkir aql-farosati tufayli Fransiya politsiyasi boshlig'i darjasiga yetgan Vetren, aslzodalar qatoriga kirishga jon-jahdi bilan urungan Ejen Rastinyak, aslzodaligidan ko'ra kapitalist bo'lishlikni ulug' bilgan, qimmatli saroylarda yashashni afzal ko'rgan, baron de Nusingen, butun mol-mulkini yengiltak, beoqibat qizlariga berib qo'yib, o'zi bechorahol bo'lib qolgan, vakxanaliya* va qimor xonalarni doimiy maskan tutgan va sevgilisi tomonidan g'ururi oshkora poymol etilgach, o'zini daryoga tashlab, o'lishga ahd qilgan Rafael (Muhabbat tilsimi) va boshqa xilma-xil zamondoshlar-qahromonlari haqida hayrat va ajablanish bilan yozgan o'nlab asarlari ko'z oldimizga keldi. "Bularning hammasida Balzak o'zining boshidan kechirganlarini tasvirlagan" shu kabi baxs-munozaralar markaziga aylangan asarlaridan yana bir nechasi "Yevgeniya Grande", "Gorio ota", "Gosbek" o'zbek kitobxonlariga allaqachon yetib borgan edi. Bugun o'zbek o'quvchilariga qayta tanishish (ilk bora 1981 yilda "Sag'ri teri tilsimi" nomi bilan nashr etilgan) nasib etgan "Muhabbat tilsimi" romanida avvalgi asarlaridagi kabi, bir tomondan, sarguzashtlik, oshkora fosh etuvchilik yo'li ustun tursa, ikkinchi jihatdan, o'z qahramonlari qalbidagi nozik sezimlarni aniq va ravshan tasvirlovchi ruh ustun turadi. Buyuk yozuvchining "Inson komediyasi" romanining syujetini belgilash uchun kundalik daftoriga quyidagilarni yozib qo'ygan edi: "Hayot timsoli bo'lga terini kashf etish, falsafiy ertaklar uchun, birinchidan, sag'ri teri, inson hayotining toza va oddiy ifodasi, inson hayoti mashinasining aniq formulasi, xullas, yakka vujud

* vakxanaliya – ishratxona.

tasvirlanadi, lekin hayotiy qilib mavhum tarzda emas”. Mana shu kalit so’zlar Balzakning fantastik qobiqqa o’ralgan sirli romanini tushunishga, uning qa’ridagi tilsimlarni anglashga yordam beradi.

“Inson komediyasi”ning aksariyat asarlarida ko’tarilgan mavzu- pul, boylik, tilla bo’lib, bu boylik asar qahramonlari hayotida mash’um rol o’ynaydi. Balzak asarlarida pul kishi xarakterini, psixologiyasini o’zgartruvchi, yemiruvchi, izdan chiqaruvchi salbiy kuch sifatida ko’rsatiladi. U odamlar o’rtasidagi munosabatlarga putur yetkazadi, er-xotin orasidagi sevgi- muhabbatni, otalar bilan bolalar o’rtasidagi hurmat-izzatni belgilovchi qabih mezonga aylanadi. Yozuvchining “Gobsek”, “Yevgeniya Grande”, “Gorio ota”, hamda “Sag’ri teri tilsimi” kabi asarlarida pulning ana shunday buzg’unchilik rolini ko’ramiz. Aqcha dunyosi Balzak qahramonlarining ayrimlarini halokatga duchor qilsa, ayrimlarini muvaffiqiyatga olib keladi.

Balzak asarlaridagi realizm, davrining haqqoniy manzarasini ko’rsatishi, o’sha davr klassiklari tomonidan qayta-qayta ta’kidlangan. “O’tmishda yashagan”, hozir yashayotgan va kelajakda bo’ladigan Zolyalardan ko’ra- realizmning mohirroq ustasi deb hisoblangan Balzak o’zining “Inson komediyasi” asarida 1816 yildan 1848 yilgacha bolgan voqealarni deyarli yilma-yil tasvirlab, bosh ko’tarib kelayotgan burjuaziyaning 1815 yildan keyin qaytadan saflanib olib, qadimiy fransuz nazokatini iloji boricha yana bir bor ko’rsatgan dvoryanlar jamiyatiga tobora ko’proq kirib borayotganini tasvirlab, fransuz “jamiyati”ning ayniqsa, “Parij yuqori doiralarining juda ajoyib realistik tarixini yaratib beradi”.

Balzak o’zi tasvirlayotgan voqea-hodisalarni tipiklashtirib ko’rsatadi. U o’z qarashlariga ko’ra legitimist* edi. U aristokratlar, dvoryanlarga xayrixohlik bilan qaradi. Ammo san’atkorning dunuo

*legitimist - eski burbonlar tarafdori

qarashidan real hayot voqeliklarini tasvirlashi ustun chiqib, Balzak o'zi sevgan zodogon va dvoryanlarning halokatga mahkum etilganini ko'rsatib berdi.

“Uning buyuk asari-kiborlar jamiyatining tuzatib bo'lmaydigan darajada buzulishi munosabati bilan to'qilgan tugamas elegiyadir: u o'lib, yo'q bo'lib ketishga mahkum etilgan sinfga xayrixohlik bildirdi. Shunday bo'lsa ham, u hammadan ortiq ko'rgan erkak va ayollarni dvoryanlarni harakat qildirib boshlaganida uning satirasi ayniqsa o'tkir, istehzosi o'ta achiq bo'ladi”.- deb yozgan edi zamondoshlari.

Balzak “asori-atika muzeyi”, “vasiylik to'g'risidagi ish”, kabi asarlarida eski aristokratiyaning insofli vakillari markiz d'Egrinon, markiz d'Esparlarni ko'rsatadi. Bu qahramonlar Balzakka yaqin bo'lsalar ham, ularning davri tugab boryotganligi ishonarli mantiq kuchi orqali ifodalangan.

Aksincha Balzak o'zining siyosiy dushmanlari bo'lgan respublikachilarning jasoratidan zavqlandi, ularga qoyil qoladi. Xalq manfaatlarini himoya qilayotib halok bo'lgan Mishel Kreten yozuvchining “Yo'qotilgan illyuziyalar” nomli romanining qahromonidir. Zamondoshlari 1832 yildagi respublikachilar-Sen Merri monastirining qahramonlari to'g'risida gapirib, “Balzak o'zining sinfiy simpatiyalariga qarshi chiqishga majbur bo'lganligini”, u kelajakning haqiqiy kishilarini o'sha vaqtda topish mumkin bo'lgan birdan-bir joyda ko'rganligini, - mana shularni realizmning eng katta yutuqlaridan biri deb, keksa Balzakning eng buyuk hislatlaridan biri deb bilishini aytishadi.

“Gorio ota” (“Le père Goriot”), “Inson komediyasi”ning muhim asarlaridan biri bo'lgan “Gorio ota” romani (1834 yil) ota va bolalar o'rtasidagi munosabat masalalariga bag'ishlanadi.

Gorio ota mayda burjua muhitidan chiqqan, u uzoq yillar makaron fermasini boshqargan, katta boylik orttirgan. Uning xotini o'lib, ikki qizi qolgan. Bular Anastaziya va Delfina. Ota qizlarini nihoyatda sevadi va ulardan sira ham pulni ayamaydi. Qizlar zodogonlar oilasida o'sadilar, katta qizi graf de Restoga, kichik qizi baron Nusenginga turmushga chiqadilar. Qizlar erga tekkanlaridan keyin ham otadan pul olib turadilar. Nihoyat, Gorio otaning pullari tugab, kuyovlari uyidan quviladi. Shundan keyin u Parij chekkasidagi Voke xonimning xarob mehmonxonasida istiqomat qila boshlaydi. Gorio ota hali ham qizlarini qaynoq otalik mehri bilan sevadi. Bu mehmonxonada kambag'al student Rastinyak, surgan bandasi Votren ham yashaydilar. Rastinyak Fransiyaning uzoq viloyatidan Parijga o'qish uchun kelgan. Ular kambag'allashib qolgan dvoryanlardir. Tez orada Rastinyak o'qishdan soviydi. Atrofdagi zodogonvatchchalar singari kiyinishni, tuzukroq movqeyga erishishni mo'ljallaydi. Uyiga xat yozib pul so'raydi. Uyidagilar Rastinyakka pul bilan birga xat ham yo'llab, Parijdan Vikontessa de Bosean nomli ayol qarindoshlarini qidirib topishni so'raydilar. Rastinyak Vikontessa de Boseanni axtarib topadi. U ayol bu yegitga yordam berishni va'da qiladi. Bu jamiyatda durustroq joy egallab olish uchun juda ham berahm bolo'lishni, odamlarni pochta aravasining otlari singari savalashni maslahat beradi. Votren esa Rastinyakning maqsadini sizib, unga millioner Tayferning merosxo'r o'g'lini o'ldirishni, so'ngra boy otaning barcha millionlari yolg'iz qizi Viktorinaga qolishini, Rastinyak bu qizga uylanib, millionlarning egasi bo'lib olishini aytadi. Shu ma'noda ham Vikontessa de Bosean, ham Votren Rastinyakka buruaziya tuzumining yozuvlik, bosqinchilik qununlarini o'rgartuvchilardir. Agar Vikontessa de Bosean burjuaziya jamiyatida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini silliqroq, pardaliroq qilib o'rgatsa, Vorten oshkora ravishda razolatga undaydi. Yozuvchi Verten

obrazi orqali burjuaziya tuzumining bosqinchilikka asoslangan qonunlarini oshkora fosh etadi. Rastinyak Vikontessa de Boseanning yordamida aristokratlar doirasiga aralashadi. Ularning hayoti va makr-nayranglarini ko'radi.

Yozuvchi bu ahloq qiyofasini romandagi Vikontessa de Bosean xonim tilidan shunday ta'riflaydi. Qancha sovuqqonlik bilan ish tutsangiz, ana o'shanda qarshingizda titrab turishadigan bo'lishadi. Hayotda jallod bo'ling, jallod bo'lmasangiz, uning oyboltasi ostida qolasiz. Rastinyak ana shu nasihat ketidan, ya'ni u zafar qozonish yo'lidan kurashmoq niyatida ketadi.

U Gorio otaning kichik qizi Delfina bilan tanishadi. O'rtadagi yaqinlik muhabbatga aylanadi. Gorio kasal bo'lib yotadi. Qizlarini sog'inadi. Lekin shunda ham ular otani ko'rgani kelmaydilar. Vafot etgan Gorioni Rastinyak, uning o'rtog'i Byanshon va yana bir necha kishi dafn etadilar. Ota bilan vidolashish uchun qizlari ham, kuyovlari ham kelmaydilar.

“Gorio ota” romani qahramonlarning hayoti favqulotda keskin voqealarga boy. Balzak qahramoni Gorio ota Shekspirni Qirol Lirini eslatadi. Qirol Lir ham butun davlatini qizlari Regana va Gonerilya o'rtasida taqsimlagan edi. Gorio ota ham bor pullarini ikkalla qizlariga sarfladi. Ota qizlariga katta sep qilganidan, zodogon avlodidan kuyov topganidan xursand bo'lsa, kuyovlar marakonchining qizlariga uylanib, juda katta sepga ega bo'lganidan xursandlar. Gorio otaning qizlariga bo'lgan mehri, muhabbati cheksiz. Qizlar otaning ana shu behad mehr-muhabbatini suiiste'mol qiladilar. Gorio ota o'limi oldidan qizlaridan yuz o'giradi. Agar qizlar otani oyoq osti qilsalar, Vatan halokatga uchraydi, deb xitob qiladi u.

Burjuaziya jamiyatida hamma narsa pulga bog'liq ekanini, boylik oilaviy munsabatlarini ich-ichidan buzib yuborayotganini Balzak katta

mahorat bilan ko'rsatib berdi. Asarda Gorio ota fojiasidan tashqari yana bir necha oilaning xonavayron bo'lishi ko'rsatiladi.

Mana, millioner Tayfer o'z qizi Viktorinani uyidan haydagan, chunki merosni u yolg'iz o'g'liga qoldirmoqchi. Gorio otaning katta qizi Anastazining eri graf de Resto o'z xotinining Maksim de Tray ismli kishi bilan uzoq yillardan buyon aloqada ekanligini sezib, bolalarning qaysi biri o'ziniki ekanligini aniqlaydi, natijada Maksim de Traydan bo'lgan bolalar hech qanday merosga ega bo'lolmaydilar.

Burjua dunyosida pul asosiga qurilgan nikoh er bilan xotin o'rtasida haqiqiy sevgi bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Er bilan xotin faqat moddiy manfaatdorlikni ko'zlab turmush quradilar. Anastazi bilan graf de Resto, Delfina bilan baron Nusingen, vikontessa de Bosean bilan uning eri o'rtasidagi munosabatlar ana shu asosda qurilgandir.

Rastinyak romandagi barcha voqealarning jonli guvohi. Ayollar yordamida Rastinyak asta-sekin burjua hayoti pog'onasidan ko'tarila boradi. Albatta, uning yuqoriga qarab o'sishi undagi insoniy fazilatlarning yo'qolib borishi, buzuqlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik burjua sharoitiga moslashish evaziga bo'ladi. Rastinyakning Gorio ota qabri ustida, kim-kimni, degan xitobi, uning burjua Pariji qonunlarinni o'ziga singdirib olayotganidan, bu qonunlarini o'sha jamiyatning o'ziga nisbatan ishga solib, uning hayot pog'onalaridan ko'tarilib borayotganligidan darak berar edi.

Balzakning "Asrdan chiqqan deputat" nomli asarida Rastinyak burjua jamiyatining ministri darajasga ko'tariladi. Bunday kishilar burjua hayoti uchun yangilik emas edi. Balzakning "Inson komediyasi"da bunaqa "omadlilar" ko'p uchraydi. Rastinyakka o'xshagan shaxslar burjuaziyaning yirtqich qonunlarini juda puxta o'zlashtiradilar. Garchi u Votrenni nasihatlarini quloqqa olmasa-da, o'z xohishlariga qarshi, yigitlik or-nomusini yerga urib, Delfina hisobiga

yashaydi, boylik orttiradi. Bu ayolni chin yurakdan sevmasa ham, vijdoniga xilof ravishda, g'arazgo'ylik maqsadiga erishish borasida har qanday ishga rozi bo'ladi. Rastinyak singari shaxslar xarakterining qaror topishida yuqorida aytilganidek, Votren kabi shaxslar asosiy rol o'ynaydilar. Vorten o'zining o'tkir aql-idroki, zehni va qobiliyatini jamiyatning jinoyatlarini ko'paytirish uchun sarflaydi. Vorten Rastinyakdagi shuhratga intilish kayfiyatlarini sezgach, unga qarab: - Agar siz mening shogirdim bo'lishni xohlaganingizda, - deydi, hamma narsaga erishgan bo'lardingiz. Nimani xohlamang; hurmat, pul, ayollar-barchasi amalga oshar edi. Vorten Rastinyakka qarab: sofdil odam hammaning dushmani, deydi. Shuning uchun o'z e'tiqodingizdan, o'z iymoningizdan yuz o'giring. Agar ularga xaridor topilsa sotib yuboring. Boy bo'lishni xohlovchilar juda ko'p, ammo "moylik joy" jamiyatda hammaga ham yetavermaydi. Kimki yuqori doirada o'ziga joy topishni hohlasa, bankadagi o'rgimchaklar singari bir-birini qurbon qilishi kerak.

Vorten qanday qilib bo'lmasin, boyish yo'llarini axtaradi. Chunki boylik hamma narsani oqlaydi. "Men boyiganimda, mendan sen kimsan deb so'ramaydilar",- deydi u. Vortenning fikricha kimki puldor bo'lsa, endi u jinoyatkor emas.

Tashqaridan yaltirab ko'ringan, ko'zni qamashtiradigan zodogonlar jamiyati ana shunday jinoiy ishlar makoni ekanligi Rastinyakni dovdiratib qo'yadi. Endi u burjua va aristokratlar dunyosining o'ta ketgan munofiq basharasini, g'arazgo'y manfaatlarining to'qnashuvini ko'z oldiga keltradi: bu dunyoda axloq ham, qonun ham boylik oldida ojiz. Dunyoning asosi pul. Rastinyak ana shu haqiqatlarni tushunib yetgach, bu zamonda muvaffaqiyat qozonish kaliti Vorten kabi jinoyat egalari qo'lida ekanligiga ishonch hosil qiladi. Ana shu haqiqatni anglab yetgani va unga amal qilgani uchun ham Rastinyak yuqori

mansabga erishadi. U Fransiyaning meri, ministri darajasiga ko'tariladi. Lekin bunday shon-shuhratlarga erishish undagi barcha insoniy xususiyatlarni poymol qilish evaziga bo'ladi.

Balzak "Gobsek" qissasida burjua tuzumi tantanasi davrida kishilar jamiyati orsidagi barcha munosabatlar pul asosiga qurilganini juda yaxshi anglab yetadi. Uning "Inson komediyasi"ga jamlangan asarlaridagi barcha qahramonlar deyarli ana shu boylik dunyosi atrofida harakat qildilar.

"Gobsek" hikoyasining qahramoni ham o'z hayotida oddiy haqiqatni, ya'ni puling qancha ko'p bo'lsa, sen shuncha qudratli bo'lasan, degan oddiy falsafani o'zlashtirib, yoshligida aqcha, oltin to'playdi. Uning qarindosh-urug'lari ham, do'st – birodarlari ham yo'q. Gosbek juda eski – tuski kiyim kiyadi, xaroba kulbada yashaydi. U hayotning barcha noz – ne'matlaridan, xuzur – halovatlaridan voz kechgan. Chol uchun dunyoning lazzati u to'plagan tillalarning jarangida, undan qarz so'rab yolvorgan kishilarning iltijolarida, Gobsek obrazi o'zida pul dunyosini mujassamlashtiradi.

Pulga, boylikka xudoga sig'ingandek sajda qiladigan Gobsek aytadi: "Mening yoshimga yetsangiz, dunyoda baxt – saodatdan ham ishonchli, ketidan quvsa arziydigan faqat bir narsa borligini bilasiz. Bu ... oltin. Insonning barcha kuchi oltinda mujassamlashgan... Hamma yerda kambag'allar bilan boylar it-mushuk. Demak, seni ezishlariga yo'l qo'ymay, o'zing boshqlarni ezganing tuzuk", - mana tilla jamg'arishni o'z hayotining ma'nosi qilib olgan mumsik Gobsekning hayot falsafasi. Sudxo'r Gobsek dunyoning rohat – farog'atini shuhratparastlikda, deb biladi: "Shuhratparastlik! Bu narsa bizning qonimizda bor. Xo'sh, Shuhratparastlikni nima qondirishi mumkin? Oltin! Haddi - hisobsiz oltin... Hamma narsa oltinda kurtak holatda. Turmushda u hamma narsani beradi".

Tilladan boshqa hech narsani tan olamydigan bu chol: “bordi-yu mendan qirol qarz bo’lganda va qarzini muddatida to’lolmaganda, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim”, - deydi qarzdorlardar biriga.

Sudho’r Gobsek o’zi ko’zga ko’rinmas kichik odam bo’lsada, Parij ko’chalarida yurib, qarzdorlarga dahshat soladi. Yuzlab odamlarning, xilma-xil oilalarning fojiasiga jonli guvoh bo’ladi. Asta-sekin u o’z tillalarining quliga aylanib qoladi. Shunday qilib, o’zi yemagan, ichmagn boyliklargina emas, hatto Gobsek hayotining o’zi ham ma’nisiz bo’lib qoladi. Zamondoshlarining asarlarida Gobsek xarakteridagi ana shu holga diqqatni tortadi: “Xasislikning barcha tomonlarini sinchiklab o’rgangan Balzakning asarida keksa sudho’r Gobsek tovarlarni qalab, xazina to’play boshlaganida boladek bo’lib qolgan qilib tasvirlanadi”.

Onore de Balzakning 30 yillarda fransuz badiiy adabiyotiga kerib kelgan “Gobsek” povestining asliyatdan olib tarjima qilingan parchalariga qaytamiz.

Povest asl nusxada avtorning quyidagi tasviri bilan boshlanadi.

”A une heure un matin, pendant l’hiver de 1829 à 1830, il se trouvait encore dans le salon de la vicontesse de Grandlieu deux personnes étrangères à sa famille. Un jeune et joli homme sortit en entendant donner le pendule. Quand le bruit de la Voiture retentit dans la cour, la vicontesse, ne voyant plus que son frère et un ami de la famille qui achevaient leur piquet, s’avance vers sa fille qui, debut devant la cheminée du salon”.

1829-1830 yillarda u butun qishni Vikontessa de Grandening mehmonxonasida yana ikkita begona kishi bilan yashadi. Yosh va kelishgan janob soatning jiringlashini eshitgach tashqariga chiqdi, hovlida mashinaning shovqini eshritlgandan so’ng Vikontessa

hozirgina qarta o'yinini tugatgan akasi hamda oilaning do'sti bo'lgan yigitni hovlida uchratmadi va mehmon kamenni yonida tik turgan qiz tomon burilib ketdi.

Onore de Balzak o'zining «Gobsek» kapital hukumronligi davrida har narsadan ustun keluvchi oltin mavqeini keskin satira ostiga olgan, avtor bu maqsadni asar markazida turuvchi sudho'r Gobsek obrazida gavdalantrishga muvaffaq bo'lgan .

Sudho'r Gobsekka xos xislatlarining barchasi avtor qalmida unga berilayotgan portret tasvirida ko'rinadi:

Il s'agit d'un usurier. Saisirez-vous bien cette figure pâle et blatarde, à la quelle je voudrais que l'Académie me permit de donner le nom de face lunaire elle ressemblait à du vermeie dédoré? Les cheveux de mon usurier étaient plats, soigneusement paignés et d'un gris condré. Les traits de son visage, impassaient avoir été coulés en bronze. Jaunes comme ceux d'une fouine, ses petits yeux n'avaient presque point de cils et craignaient la lumière: mais l'abat-jour d'une vieille casquette les en garantissait son nez pointu était si grêlé dans le bout que vous l'eussiez comparé à une vrille. Il avait les lèvres minces de les alchimistes et de ces petits vieillards peints par Rembrand ou par Metz. Cet homme parlait bas, d'un ton doux, et ne s'emportait mois. Son âge était un problème: on ne pouvait passavoir s'il était vieux avant le tamps, ou s'il avait ménagé sa jeunesse afin qu'elle lui servit toujours.

Gap sudxo'r, kishilar haqidan qo'rqmaydigan odam haqida borayapti. Ko'z oldingizga oqargan, rangpar tun qiyofani keltirib ko'ring. Sarg'ish-kulrang sochlari hafsala bilan silliq taralgan. Yuzidagi belgilar Talyaranniki singari befarq, xuddi bronzadan quyilgandek. Tosh suvsarniki singari sap-sariq mitti ko'zlarida deyarli kiprik yo'q, yorug'likdan qo'rqadi, ammo, eski shapkasi ko'zini yorug'likdan

saqlaydi. Qirra burni butkil cho'tir bilan qoplangan, xuddi parmaga o'xshaydi. Lablari esa Nitzu va Rembrantlarning yaratgan qahramonlari qariyalarniki singari ingichka. Bu odam yoqimli past ovozda gapiradi va hech ham qizishmaydi. Ammo, yoshi borasida biror narsa deyish qiyin, u vaqtdan oldin qariganmi, yoki o'zini butun umr avaylaganmi - buni bilish qiyin. Nima bo'lganda ham, yosh ko'rinishi doimo uning foydasiga xizmat qilib kelgan.

Tarjimadan ko'rinib turibdiki Gobsekning tashqi qiyofasi uning ichki dunyosini ham o'zida ifodalab turibdi.

Yana bir misol:

Orginalda: "Un jour, par hasard, il portait de l'or: un double napoléon se fit jour, on ne sais comment, à travers sougousset : un locataire qui le suivait dans l'escalier ramasse la pièce et le lui présente.

- Cela ne m'appartient pas, répondit-il avec un geste de surprise.

- A moi de l'or! Vivrais-je comme je vis ai j'étais riche?

Bir kuni, tasodifan, yonida tillasi borligi bilinib qoldi: shundan bir tilla uning chuntagidan tushib ketdi, uni orqasidan, zinapoyada kelayotgan odam, tillani olib unga uzatdi. Sudxo'r ajablanib unga qaradi – bu meniki emas, menda tilla nima qilsin.

Agar tillam bo'lganida shunday yashar edimmi?

Balzakning xasislik, pul jamg'arish kasaliga muhtalo bo'lgan kishilar haqidagi ikkinchi yirik asari "Yevgeniya Grande" romanidir (1833). Grande ham Gobsek kabi burjua tuzumining tipik vakilidir. Bu har ikkala shaxs burjuaziyaning yirtqich, talovchi, qizg'anchiq, pul uchun mukkasidan ketgan vakillarining umumlashtirilgan obrazlaridir.

Grande Somyur shaxrining yirik savdogari. U bozorda mollarining qachon narxi oshishi-yu, qachon arzon bo'lishini juda yaxshi biladi. Aytadigan bo'lsak Grande ishning ko'ziini biladigan, faqat o'z foydasigagina ish qiladigan odam. Juda ham ziqna, xasis, pastkash

bo'lishiga qaramay, puldorligi sababli, hamma unga xushomad qiladi. Grandening xasisligi shu darajadaki, hatto ishlari yurishmay qarzga botib qolgan o'z ukasiga ham yordam berishni istamaydi. Natijada og'ir ahvolda qolgan uka o'zini-o'zi o'ldirishga majbur bo'ladi. Grande ziqnalik qilib Parijdan kelgan ukasining o'g'li Sharlga ham o'zini juda kambag'al qilib ko'rsatadi. Grande xonim bilan qizi Yevgeniya yiqqan pullarni Sharlga yordam sifatida beradilar. Sharl bu pullar orqali savdo bilan shug'ullanib boylik orttirishi, so'ngra qaytib kelib, Yevgeniyaga uylanishi lozim edi. Bundan habar topgan Grande xotini va qiziga zulm o'tkazadi. Azob ichida qolgan Grande xonim vafot etadi. Grandening o'zi ham kasallanib yotib qoladi. Qizini chaqirib, oltinlarni yaxshi asra, hisobini narigi dunyoda olaman, deb vafot etadi.

Yakka-yu yagona qizi Yevgeniyani ham o'z udumiga sodiq bo'lishga undaydi. Otasi vafotidan so'ng uning millionlariga ega bo'lgan Yevgeniya hayotdan baxt topolmaydi, o'z oltinlarining o'yinchog'iga aylanib, qari qiz bo'lib qoladi. Axiri, o'z muhabbatiga erisha olmagan Yevgeniya qishloqi chinovnikka turmushga chiqadi. Savdo ishiga aralashib boyigach, Sharl ham o'zgaradi, tipik xasis burjua kishisiga aylanadi. Parijga qaytib kelgach, zodagon ayolga uylanadi.

Agar Gobsek bilan Grande obrazlari kitobhon ko'z oldida boshdan – oyoq tipik burjua vakillari bo'lib gavdalansa, Sharl oddiy, sodda yigitchadan asta-sekin burjuaziyaning yirtqich, muttaham, yulg'ich vakiliga aylana boradi.

«Yevgeniya Grande» asaridan parchalar:

Matinale comme toutes les filles de provinces, Eugénie Grande se leva de bonne heure, fit sa prière et commença sa toilette. Elle lissa ses cheveux châtains, tordit les grosses nattes au-dessus de sa tête avec le plus grand son. Elle mit ses bas neufs et ses plus jolis souliers. Parce

qu'elle pensait à son cousin, Eugénie se mit devant son miroir et s'y regarda, comme un auteur contemple son oeuvre pour se critiquer.

« Je ne suis pas assez belle pour lui », telle était la pensée d'Eugénie.

La pauvre fille ne se rendait pas justice. Elle était fortement constituée et sa beauté paraissait vulgaire. Elle avait une tête énorme, le front masculin mais délicat d'un Jupiter, ses yeux gris étaient pleins de lumière les traits de son visage rond, jadis fraus et rose, avaient été marqués par la petite vérole. Son nez était un peut trop fort, mais il s'harmonisait avec une bouche rouge, dont les lèvres étaient pleines d'amour et de bonté. Le cou avait une rondeur parfaite. Eugénie, grande et forte, n'avait donc rien du joli qui plaît aux masses. Elle se disait, en pensant: je suis trop laide, il ne fera pas attention à moi...

Un moment plus tard Eugénie ouvrait la porte de sa chambre qui donnait sur l'escalier, et tendait le cou pour écouter les bruits de la maison.

Eugénie appela Nanon:

- Nanon, ma bonne Nanon, fais donc de la crème pour le café de mon cousin.

- Mais, mademoiselle, il aurait fallu s'y prendre hier, dit Nanon, qui partit d'un gros éclat de rire... Je ne peux pas faire de la crème

- Nanon, comme tu ne peux pas nous faire de la crème, fais-nous donc de la galette.

- Et qui me donnera du bois pour le four, de la farine et du beurre ?
Dit Nanon, demandez à votre père, il peut vous en donner. Tenez, le voilà qui descend.

- De peur Eugénie se sauva dans le jardin.

Muni de ses clés, le bonhomme était venu pour mesurer les vivres nécessaires à la consommation de la journée.

- Reste-t-il du pain d'hier? Dit-il à Nanon.
- Pas une miette, monsieur.
- Les jeunes gens de Paris, tu verras que ça ne manger point de pain..
- Enfin, après avoir parcimonieusement ordonné le menu puotidien le bonhomme allait se diriger vers son fruitier.

Nanon l'arrêta pour lui dire:

Monsieur, donnez-moi donc, puisque vous êtes là, de la farine et du beurre.

- Mademoiselle, cria la cuisinièkyō nous aurons une galette.
- Le père Grande, n'ayant plus d'ordre à donner, prit son chapeau et sortit.

- Eugénie allait, venait, trotait, sautait. Elle aurait bien voulu mettre à sec toute la maison de son père; mais il avait les clefs de tout. Nanon revint avec deux oeufs frais. Voyant les oeufs, Eugénie eut l'envie de lui sauter au cou.

Après deux heures de soins, pendant lesquelles Eugénie quitta vingt fois son ouvrage pour aller surveiller le café, elle réussit à préparer un déjeuner très simple, peu couteux, mais qui dérogeait terriblement aux habitudes de la maison. Le déjeuner de midi s'y faisait debout. Chacun prenait un de pain, un fruit ou du beurre, et un verre de vin.

Voyant la table placée auprès de feu, l'un des fauteuils mis devant le couvert de son cousin, voyant les deux assiettes de fruits, les oeufs, la bouteille de vin blanc, le pain et le sucre amoncelé dans une soucoupe, Eugénie trembla de tous ses membres en sopngeant seulement alors aux regards que lui lancerait son père.

- Sois tranquille, Eugénie, si père vient, je prendrai tout sur moi, dit Madame Grandet.

- Barcha provinsiyalik qizlar singgari Yevgeniya tong yorishi bilan o'rnidan turib, ibodat qildi va pardoz qilishga kirishdi. Dastavval qiz

tillarang sochlarni siliq qilib taradi, so'ng zo'r hafsala bilan qalin o'rilgan sochlarini boshining yuqori qismiga turmakladi. U yangi paypoq va chiroyli tuflisini kiydi. U amakivachchasi haqida o'ylardi, Yevgeniya oyna oldiga keldi va unga qaradi, aybdor singari o'z xatti-harakatlarini kuzatdi: "men unga yoqadiganchalik chiroyli emasman" deya o'nga botdi Yevgeniya. Baxtsiz qiz haqiqatga taslim bo'lmadi. U o'ta darajada go'zal emasdi. Qizning boshi katta, peshonasi erkaklarniki singari baland bo'lsa-da, lekin o'ziga yarashib turardi, uning kulrang ko'zlarida hayotning go'zalligi to'la aks etib, yorqin shula shula sochib turardi. Uning yuz ko'rinishi yumaloq (bir vaqtlar chechak kasalligi tufayli yuzi cho'tir bo'lib qolgandi). Uning burni biroz kattaroq bo'lsada lekin og'ziga yarashib turardi. Dudoqlari muhabbat va ezgulikka to'la edi. Bo'yni to'ladan kelgan, Yevgeniya novchadan kelgan xushbichim qiz edi. Mana Yevgeniya o'zini oynaga solarkan dedi, bir oz o'ylanib "men juda xunukman u menga qiyos ham boqmasa kerak" ..

Bir oz keyin Yevgeniya zinaga qaragan xonasining eshigini ochdi va xonadagi shovqinga bo'yni cho'zib quloq soldi.

- Yevgeniya Nanonni chaqirdi: Nanon, Nanon amakivatchcham uchun qahva tayyorla.
- Lekin, xonim u kecha tayyorlangan bo'lishi kerak deb Nanon to'saddan kulib yubordi.... men krem tayyorlay olmayman.
- Nanon sen biz uchun krem tayyorlay olmasang, bizga kulcha pishir.
- Menga pech uchun o'tin, un va yog'ni kim beradi? – dedi Nanon, otangizdan so'rang u sizga ularni beradi. Mana ushla, ularni tashlayapman...
- Yevgeniya qo'rqib ketganidan o'zini bog'ga o'rdi.

Bu odam kunlik istemol qilishga kerakli bo'lgan oziq-ovqatlar bilan taminlab turardi.

- Kechagi nondan qoldimi? – dedi u Nanonga.

- Ushog'i ham qolmagan, janob.

- Shuni bilginki Parij yoshlari nonni deyarli iste'mol qilishmaydi.

- Nihoyat kundalik taomnomani tezakorlik bilan taqsimlagandan keyin bu odam mevalarini saqlaydigan ombori tomon yo'naldi.

Nanon unga gapirish uchun uni to'xtatdi.

- Janob, siz shu yerda bo'lsangiz menga un va yog' bering; bolalarga kulcha pishirmoqchiman. U unga o'lchab un va qo'shimcha bir kichik bo'lak yog' berdi.

- Xonim, bizda kulcha bor deb qichqirdi oshpaz.

Grande ota boshqa buyruq bermadi va chiqib ketdi.

Yevgeniya borardi, kelardi, mayda qadam tashlab tez yurardi, sakrardi. U otasining butun uyidagi bor-yo'g'idan mahrum qilishni juda hohlardi. Lekin, hamma kalit unda edi.

Nanon yangi ikkita tuxum bilan qaytib kirdi, tuxumlarni ko'rib Yevgeniyada istak paydo bo'ldi. Yevgeniya oxir ikki soat deganda, nihoyatda oddiy va arzon bo'lsa ham, ammo uydagi xasis odatlari paymol etuvchi nonushtani tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. Tushlik nonushta tayyor bo'ldi. Har kim o'zicha bir burda non, yog' yoki birorta hul mevani tamaddi qilar va bir stakan vino ichardi. Yevgeniya kamin yoniga ko'chirilgan stolni, kresloni va amakivatchchasi uchun hozirlagan bir shisha oq vinoni, nonni va bir likobcha qandni ko'rdi-yu, birdan a'zoi badani qaltrab ketdi, hozir u, to'satdan otasi kirib kelib, yasatiqli stolni ko'rib qolsa, qizidan qanday g'azablanishini ko'z oldiga keltirgan edi.

Portrait de Madame Grandet

Madame Grandet était une sèche et maigre, gauche, lent; une de ces femmes qui semblait faites pour être tiranisées. Elle avait de gros, un gros front, de gros yeux. C'est une excellente femme.

Une douceur angélique, une résignation d'insecte tourmenté par des enfants, une piété rare, un *ищо* Coeur la faisaient plandre et respecter. Son mari ne lui donnait jamais de six francs à la fois. Mais quand elle les avait reçus, il lui disait souvent: « as-tu quelques sous à me prêter? » et la pauvre femme les lui rendait.

Madame Grandet mettait invariablement une robe verte qu'elle s'était accoutumée à faire durer près d'une année. Sortant peu du logis, elle usait peu de souliers. Enfin, elle ne voulait jamais rien pour elle.

Grande xonim qiyofasi

Grande xonim qo'pol va ozg'in, chaqqon emas, sekin harakat qiladigan ayol. Bu ayollarga xos yuksak bo'lish uchun qiziqqonga o'xshab ko'rinardi. Uning yirik suyaklari, katta peshonasiga yarashgan katta-katta ko'zlari, beo'xshov burni bir butunlikni tashkil etgan. Tashqi ko'rinishiga qaramasdan bu ayol xushfe'l.

Bu yuvvoshgina, qalbi mehr shavqatga limmo-lim ayolga bolalar ozor berishardi. Uning eri unga hech qachon 6 frankdan ortiq pul bermagan. Ammo u pullarni olganda eri unga doim nimadir deydi: "pullarning o'rniga nimadir bera olasanmi?" Va shu zahotiyoq bechora ayol pullarni unga qaytarib berardi.

Grande xonim yil o'n ikki oy bitta ko'ylakda yurardi. Uydan chiqayotganda uning oyog'ida oyoq kiyim kamdan kam bo'lardi. Shunday qilib u o'zi uchun hech narsa xohlamasdi.

Illusions perdues. 1835 – 1843 yillar davomida Balzak eng yirik asaridan biri "Ushalmagan orzular" ("Illusions perdues" 1843) romanini yozib tugatdi. Bu roman muallifining oldingi asarlariga qaraganda

hajmi jihatdan ham, obrazlar dunyosining barkamolligi, voqealar tasvirining kengligi va haqqoniyligi jihatdan ham birmuncha ustun turadi. Masalan, bu paytgacha mashhur sanalgan “Gorio ota” (“Le père Goriot”) romanidagi voqealar, faqat Parij shahrida sodir bo’lib o’tsa, “Ushalmagan orzular”ning syujeti dastlab chekka viloyatlarning biri Angulemda boshlanib, so’ngra Parijga ko’chadi va oxiri yana Angulemda yakunlanadi. “Gorio ota” romanida bosh qahramon Ejen Rastinyakning provinsiyadagi hayoti eslatibgina o’tiladi xalos. “Ushalmagan orzular”da esa, bosh qahramon Lyusen Shardonning qishloqdagi hayoti ham batafsil yoritilganini ko’ramiz.

Asarning birinchi qimsida Shardon ikki maqsad yo’lida kurash olib boradi. Uning birinchi orzusi, shoir bo’lib adabiyotda yuksaklikka ko’tarilishi bo’lsa, ikkinchi maqsadi, graflik unvoniga erishish, ya’ni onasining qizlik familiyasi de Ryubampnerni tiklab o’z nomini ulug’lash edi. Shu istak yo’lida, u dastlab Angulemning zodagonlaridan bo’lgan garafiniya de Barjetonning e’tiborini qozonishga muvaffaq bo’ladi va bu ayolning oshiqu beqaror jazmaniga aylanadi. Ikkalasi o’rtasidagi ishq-muhabbat avjiga mingan damda grafiniyaga ergashib Lyusen Parijga keladi. Garafiniya de Barjeton Parijdagi oqsuyaklar davrasida o’z o’rnini egallaguncha Lyusen chidam bilan kutishi lozim edi. Talantli yosh shoirning bu shartga bardoshi chidamaydi. Ma’shuqasini nopisandlikda ayblab, tez orada undan yuz o’giradi.

O’z talantiga ishongan Lyusen Shardon zamonasining ilg’or fikrli yoshlari yig’ilgan d’Artezning adabiyot saloniga qatnaydi. Erkin ijod tarafdorlari bo’lgan olim Leon Jero, student medik Oras Byanshon, rassom Jozef Brid, inqilobchi Mishel Kreten va talantli yozuvchi d’Artaz unga yordam beradilar. To’qqiz kishidan iborat bo’lgan bu to’garak a’zolari “ajoyib aqliy xazina” edi.

Ular o'z talantlarini bo'lar – bo'lmasga sarflamasdilar. Oddiy yashashar shon-shuhrat izidan quvmas, barcha qiyinchilik va muvaffaqiyatlarni birga baham ko'rishar, tushkunlikka tushmasdan, birlarini doimo qo'llab-quvatlashardilar. Bu to'garakning o'z dasturi, amal qiluvchi qonun-tartiblari bor edi. Amal va shon-shuhrat ortidan quvgan Lyusen bu osoyishtalikdan qoniqmaydi. Endi yosh shoir o'ziga yangi homiylar axtaradi.

Parij teatrlarining tannoz aktrisasi, sohibjamol Korali va mansabparast jurnalist Eten Lusto uning tabiatiga mos keladilar. Ma'shuqasi Korali yordamida oqsuyaklar davrasida tanila boshlaydi. Lusto esa, uni etiborli gazetalar va jurnalistlar guruhiga olib kiradi. Lyusen dastlabki tanqidiy maqola va rezentsiyalari bilanoq adabiyot salonlarida shuhrat qozonadi.

Endilikda, Lyusen Shardon oldida amalga oshirish lozim bo'lgan ikkinchi orzusi turardi. Bu yo'lda unga faqat grafiniya de Barjeton, madam d'Espar va janob de Shatlelarga yordam berishi mumkin edi.

Royalistlar guruhini boshqaruvchi bu oliy zotlar Lyusenni o'z gazetalarida ishtirok etishga chorlaydi. Graflik unvoniga ega bo'lishni orzu qilgan Lyusen osonlikcha bu shartga rozi bo'ladi va realistlarning didiga mos maqolalar yoza boshlaydi. Bu safar Lyusen tuzoqqa tushgan edi. Barcha gazetalar uni "ikkiyuzlamachi jurnalist" deya yozganlardagina va ma'shuqasi Koralini "talantsiz aktrisa" deya baholashganida u o'z xatosini anglab yetadi.

Tez orada Korali barcha teatrlardan quviladi va bu zarbaga chidolmasdan kasalga chalinib, hayotdan ko'z yumadi. Ministr "ikkiyuzlamachi jurnalist"ga graflik unvonini lozim topmaydi.

Gazetalar uning maqolalarini bosishdan bosh tortadi. Noshirlar "Karl IX ning kamonchisi" romani bilan "yorongullar" she'riy to'plamini chop etmay qaytarib beradilar. Inqirozga yus tutgan Lyusen

do'stlari Lusto, Natan va d'Artezdan madat so'rab borganida, ular ham har-xil bahonalar bilan undan o'zlarini chetga olishadi. Ma'shuqasi Koralini dafn etishga bir chaqasi bo'lmagan Lyusen hatto, pul topish kuyida Vulgar gazetalari uchun shahvoniy mazmundagi be'tamiz she'rlar yozishga majbur bo'ladi. Shardon sharmandai-sharmisol bo'lib, bor budidan ayrilib g'arib bir holatda ona yurti Angulemga qaytib keladi.

Lyusen Shardon boshidan kechirgan bu fojia zamonasining achchiq haqiqati edi. Chunki, Lyusen ham o'ziga o'xshash o'nlab zamondoshlari singari shuhrat qozonish yo'lida shu achchiq haqiqatni qurboni bo'ldi, uning orzulari illyuziyaga* aylandi. Uni ham, har narsaga qodir pul iblisi zamona korchalonlari, talant savdogarlari qo'lga itqitdi. Shoir o'z xatosini kech angladi, o'z talantini pulga sotganini, bor kuch-g'ayratini o'zgalar manfaati uchun sarflaganini vaqtida tushunib yetolmadi.

Lyusen fojiasining avvali va so'ngini jurnalist Lusto bilan uning o'rtasidagi ushbu suhbatidayoq o'tkir didli kitobxon bermalol anglab olishi mumkin.

”....o'zi ifoda etgan ehtiroslar ovozida aytilgan uzundan-uzoq balandparvoz achchiq so'z Lyusenning qalbiga qor lavasidek yopirilib, uni muzlatib yubordi. U bir zum jim turdi. So'ng bu to'siqlarning dahshatli poeziyasi bilan uyg'otib yuborilganday, uning qalbi olovlanib ketdi. Lyusen, Lustonning qo'lini mahkam qisdida:

- Men albatta tantana qilaman! - deb qichqirdi u.
- Juda soz! - dedi jurnalist. Hayvonlarga yem bo'lmoq uchun yana bir xristyan maydonga chiqayapti ekan-da”.

Darhaqiqat, Lyusen burjua jamiyati aqidalarining himoyachilari Lusto aytgan o'sha ”hayvonlar” bilan olishishga qurbi yetmadi va o'zi

* illyuziya-sarob

ularga yem bo'ldi. Faqat Lyusengina bu kurashning qurboni bo'lgan emas, o'zining kaltafahmliigi tufayli Angulemda tinch-totuv yashab turgan mehribon singlisi bilan do'sti David Sesharning oilasini badnom etadi, yo'qsillikka duchor qiladi. Chunki u, do'sti ham kuyovi bo'lgan Davidning nomidan katta summali veksellar yozib bankirlardan qarz ko'targandi. Bundan xabarsiz er-xotin Sesharlar oilasini boqib turgan bosmaxonasini arzon garovga sotishga majbur bo'ladilar.

Romanning finalida Lyusen Angulemdan bosh olib chiqib ketadi. David Seshar oilasi bilan otasidan qolgan meros hisobiga baholi qudrat yashay boshlaydi. Lyusen hayotining keyingi davri yozuvchining "Yalang-oyoqlarning dabdabasi va qashshoqligi" ("Splendeurs et miseres des courtisanes") nomli romanida tasvirlangan.

Romanda Parij kiborlar jamiyatining turli jabhalariga mansub kishilar: chinovniklar, bankirlar, korchalonlar, adabiyot va san'at sohiblari obrazlari yaratilgan bo'lib, yozuvchi ular ta'rifida yashash tarzini baland-past ko'rinishlarini tasvirlaydi. Bu bilan hayotda barcha kishilar bir xil bo'lib, faqat unvonu , boyliklargina ularni ma'lum toifalarga bo'lishini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Masalan, roman qahramonlari hayotda omadi yurishmagan Lyusen Ryubompre va jinoyatchilar piri abbat Karlos Errera hamfikir bo'lib, kiborlar davrasiga yo'l axtaradilar. Bu maqsad yo'lida barcha razillik va jinoyatlar qilishadi. Oqibat, har ikkala qahramon qamoqqa tushadi. Lyusen nomusga chiday olmasdan o'zini-o'zi o'ldiradi, abbat Karlos esa har doimgidek suvdan quruq chiqib, o'zi tanlagan tovlamachilik kasbini davom ettiradi.

Dehqonlar (Les paysans) romanini Balzak o'zining eng mashhur asarlaridan sanagan edi. Asarida yozuvchi Fransiyada burjua tuzumi mustahkamlanib borayotgan bir davrda, shahardan uzoqda yashovchi

pomeshchik-dehqonlar hayotining inqirozga yuz tutish holatini tasvilyaydi.

Napoleon armiyasining sobiq generali Monkorne o'zining qishlog'idagi katta dalasini saqlab qolish uchun dehqonlari bilan nechog'liq urinmasin, burjua korchalonlari oldida ojizlik qilib qoladi. Ular general Monkornedan yerini arzon narxlab tortib oladi. Sudxo'r Rigu va savdogar Goberten yerga egalik qilishgach, dehqonlarga zulum o'tkazadi. Balzak bu ikki mulkdorga qarshi dehqon Nizron obrazini qarshi qo'yish bilan ularga qarshi kurashishga, dehqonlar haq-huquqlarini himoya qilishga harakat qilmoqchi bo'ladi. Baribir, Nizron va boshqa respublikachilarning adolat yo'lidagi hatti-harakatlari, olib borgan kurashi samarasiz bo'lib qoladi.

Balzak "Xolavachcha Betta" (La cousine Bette) asarida bir-biriga qarindosh bo'lgan oilalar o'rtasidagi o'zora ko'rolmaslik va ichiqoralikdan kelib chiqqan salbiy holatlarni tasvirlaydi. Biri ikkinchisiga amaki, jiyan va xolavachcha bo'lgan kiborlar doirasiga mansub kishilar chetdan qaranganda o'zaro hamjihat ko'rinsalarda, aslida hasad girdobiga g'arq bo'lgan, bir-biriga baxtsizlik va o'lim istovchi sovuq qalb egalaridirilar.

Romandagi asosiy konflikt Bettalar oilasining o'ta badavlat bo'lmish o'z qarindoshlariga nisbatan uzoq yillardan buyon yig'ilib kelgan qasdu-hasadlarini amalga oshirish rejalarida ko'rinadi.

Pons amaki (Le cousin Pons) asarining bosh qahramoni Pons amaki umrini musiqa san'atiga bag'ishlagan, shuningdek tasviriy san'at asarlarini yig'ib, avaylab-asrab kelgan halol va pokiza insondir, ammo uning badavlat qarindosh-urug'lari kekxa Ponsni doimo mazah qilishardi, arziyas san'at asarlarining jinnisiga aylanganligidan kulishadi. Biroq, Pons amaki to'shak tortib yotib qolgachgina, uning kolleksiyasi naqadar qimmatbaho ekanligini anglab yetishgach, meros

uchun ular orasida dahanaki jang boshlanadi. O'lim to'shagida yotgan Pons amaki o'z qarindoshlarini merosdan mahrum etib, nodir kolleksiyasini kekxa do'stiga topshiradi. San'at asarlarining qimmatiga fahmi yetmagan bu odam kartinalarni arzon narxlarda sotib, Pons amakining qolgan kunlarini xotirjam va tashvishsiz kechishini ta'minlaydi.

Yozuvchining "Noma'lum Navodir" (Le chef d'oeuvre inconnu. 1831) asaridagi voqealar XVII asrda Parij shahrida sodir bolib o'tadi. Unda yosh mo'yqalam sohibi Nikola Pussen va u bilan bir davrda ijod qilgan rassomlarning fojiaviy taqdiri, mashaqqatli hayoti, ijod yo'lidagi zahmatlari tasvirlanadi. Asarda to'qima obraz-kekxa musavvir Frenxoferning san'at yo'lidagi halol va fidoiy umri adib tamonidan mohirona yaratilgan.

- Qahramon xarakteri, tashqi muhit, uni o'rab turgan ijtimoiy sharoit ta'sirida qaror topgani uchun Balzak ana shu tashqi dunyoga, uning tafsilotiga katta ahamiyat beradi. Shuning uchun adibning har bir asarida qahramon va voqealar holatini belgilab beruvchi atrof-muhit, narsalarga keng o'rin beriladi. Natijada uning har bir asari mukammal, jozibali bo'lib, kitobxon qalbini o'ziga rom qiladi.

Adabiyotning tolmas zahmatkashi Balzak umr bo'yi tinmay mehnat qildi, asarlar yozdi. U burjua sinfining jirkanch qiyofasini, buzuq ahloqini to'g'ri tushuna bildi. U o'z asarlarida bu buzuq ahloq egalarini keskin fosh etish bilan birga, oddiy halq vakillarining oliyjanobligini, chin muhabbati, sadoqatli do'stligi, ma'naviy yuksakligini ham zavq-shavq bilan qalamga oldi.

Hayotning ziyrak kuzatuvchisi bo'lgan yozuvchi bir qator asarlarida mehnatkash xalqning stixiyaviy noroziligini, ularning turmadagidan battar turmushini haqqoniy ko'rsatib berdi. Balzak kishilar pisixologiyasining nihoyatda chuqur bilimdoni ham edi. Buni

biz adibning xususiy mulkchilik psixologiyasini ochib berishidagi mahoratida ko'ramiz. Shuning uchun ham buyuk insonshunosning bu san'ati, jahon adabiyotida yangi sahifa tanqidiy realizm sahifasini ochdi. Uning realizmi o'zi yashagan jamiyatni muvossasiz tanqid etgan realizm edi. Balzak o'zining "Inson komediyasi" turkumini yaratish bilan zamonasining xushyor ziyolisi, o'tkir tilli satirik yozuvchisi, bilimdon faylasufi sifatida jahon adabiyotida shuhrat qozondi.

Darhaqiqat Balzak og'ir hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Ammo bir umr qarzдор bo'lib yashadi. Uning buyuk asarlarini nashr etgan nashriyotchilar boyidilar. Balzakning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida Sardiniyada kumush konlari topish, mevazor bog' tashkil qilish, XVII asr Fransiyasining talantli yozuvchilari Molyer va Lafontenning tanlangan asarlarini nashr qilish kabi harakatlari hech qanday natija bermadi, aksincha, uning qarzlari ko'paytirdi. Buyuk yozuvchiga xiyonat qilmagan narsa uning qalami bo'ldi.

Balzak shaxsiy hayotda ham baxtiyor bo'lmadi. U rus fuqorasi bo'lgan, uzoq yillar xat yozishib kelgan mehribon do'sti va sirdoshi grafiniya Evelina Ganskaya bilan bo'ladigan nikohini deyarli umrining oxirigacha kutdi. Graf Ganskiy vafotidan keyin 1850 yilning martida u uylanish niyatida Ukrainaga keldi va Bardichev shaharchasida 14 mart kuni Balzak va Ganskaya to'ylari bo'lib o'tdi. Orzusi ushalgan adib Parijdagi do'sti Zyulma Karroga shunday yozadi: "Menga hayotimning na baxtli bolaligidan, na navqiron yoshligidan to'yib bahra olish nasib etmadi. Aftidan umrimning yozi va kuzi totli o'tadigan ko'rinadi." Bunday baxt Balzakka nasib etmadi. May oyida kasali zo'raygan adib rafiqasi bilan Parijga qaytadi. Ahvoli yomonlashgan adib 1850 yil avgustida vafot etadi va 21 avgustda uni yori do'stlari dafn etadilar.

"Janob Balzak barcha buyuklarning buyugi, sara insonlarni sarasi edi, u yozib qoldirgan asarlar butun bir kitobni, zamonamizni to'liq va

yorqin aks ettiruvchi hayot sahifasini tashkil qiladi,” degandi dafn marosimida mashhur adib Viktor Gyugo.

“Fransuz tili,- deb yozgan edi Mopassan, - toza suvdek musaffodir,uni hech kim loyqalatolmagan va bundan keyin ham loyqalatolmaydi.... Bizning tilimiz o’zining mantiqiyliigi, ma’nodorligi va burroligi bilan go’zaldir.

San’atkor asarlarining tili ham shunday tildir.

Balzak yashagan jamiyat uning ijodini qadrlamagan bo’lsada, u o’tgan asrning birinchi yarmidayoq butun Yevropaga tanilgan edi. XX asrga kelib o’zbek kitobxonlari ham yozuvchi asarlarini ona tilida o’qishga muyassar bo’ldilar.

Balzakning “Yevgeniya Grande” romani 1964 yilda Davron, “Gorio ota” romani 1968 yilda M.Muhammadjonov, “Gobsek” 1981 yilda I.G’ofurov, “Sag’ri teri tilsimi” 1981 yil M.Mirzoidov tomonidan o’zbek tiliga o’girildi va o’quvchilarning sevimli kitoblari bo’lib qoldi.

“Yozuvchining o’z oily hakami bor-bu kelajakdir” degandi Balzakning o’zi. San’atkor aytgan bu hikmatning nechog’lik ro’yobga chiqqanini jahon halqlarining adib ijodiga katta qiziqish bilan qarab kelayotganidan ham bilsa bo’ladi.

I.I, bob. Onore de Balzak asarlarida undov so'zlarning ishlatilishi:

Badiiy asarlarda har bir so'z, hatto har bir tinish belgisining ham o'z vazifasi bo'ladi. Jumladan, undov so'zlar ham asarga o'ziga xos ekspressiv ohang beradi. Personajlarning turli kechinmalarini, his-hayojonlarini ifoda etadi. Chunonchi, ular undov so'zlar yordamida o'z qo'vonchlarini, g'am-anduhlarini, hayrat va qiziqishlarini biror narsa yoki shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Undov so'zlarning bir tildan ikkinchi bir tilga to'g'ri tarjima qilinishi ham personajlar nutqidagi ma'lum intonatsiyani, ularning qalbidagi yuqorida qayd etilgan kechinmalarini anglab yetishga, tarjimada muallif uslubini to'g'ri saqlashga yordam beradi. Ularni asl nusxada mos muqobillar bilan berish uchun, avvalo, undov so'zlarni to'g'ri ishlata bilish, ular tashigan ma'noni, turli uslubiy qirralarini to'g'ri anglay bilish lozim. Undov so'zlar hamma tillarda ham aynan bir-biriga muvofiq kelavermaydi.

Undov so'zlarining har biri so'zlovchining kayfiyatiga, qanday his-tuyg'uni ifodalashiga hamda asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, o'sha til qonuniyatlariga qarab turlicha o'giriladi.

Chet tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilganda ham personajlar nutqida uchraydigan undov so'zlar asl nusxada qanday ma'no tashiytgnaiga qarab o'zbek tilidagi shunga muvofiq undov so'zlar yordamida o'girish lozim. Agar ma'lum asar o'zbekchaga bevosita tarjima qilinayotgan bo'lsa, buning imkoniyatlari juda keng. Nigaki bunda vosita til bo'lmaydi, tarjimon faqat originalga tayanadi. Masalan, Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" romanida qimorxonada bo'ladigan o'yin vaqtidagi holatga nazar tashlaylik:

Originalda: Est-ce ma faute, à moi, si le catholicisme arrive à mettre un million de deux dans un sac de farine, si la république aboutit

toujours à quelque Napoléon, si la royauté se trouve entre l'assassinat de Henri IV et le jugement de Louis XVI, si le libéralisme devient La Fayette?

- L'avez-vous embrassé en juillet?
- Non.
- Alors taisez-vous, sceptique.
- Que dites-vous ? Ils en ont au moins deux.
- Hé! Mes bons amis, que pouvez-vous attendre d'un siècle repu de politique? Dit Nathan. Quel a été le sort du Roi de Bohême et de ses sept châteaux, la plus ravissante conception.....
- Ça? .. cria le joueur d'un bout de la table à l'autre. C'est des phrases tirées au hasard dans un chapeau, véritable ouvrage écrit pour Charenton.
- Vos êtes un sot!
- Vous êtes un drole!
- Oh! oh!
- Ah! ah!
- Ils se battront.
- Non .
- A demain, monsieur.
- A l'instant, répondit Nathan.
- Allons! allons! Vous êtes deux braves.
- Vous en êtes un autre! Dit le provocateur.
- Ils ne peuvent seulement pas se mettre debout.

Ah! Je ne me tiens pas droit, peut-être! Reprit le belliqueux Nathan en se dressant comme un cerf-volant indécis.

- Agar katolik dini ming tangrini bir deb tursa. Respublika hamisha birorta Napoleon bilan tugasa, qirol hokimiyatining chegarasi Genrix IV chining o'ldirilishi bilan Lyudovik XVI chining qatl

etilishi o'rtasida bo'lsa, liberallar oxiri Lafayet bo'lib chiqsa, mening gunohim nima?

- Siz Lafayet bilan iyulda opoq-chapoq emasmingiz?
- Yo'q
- Unday bo'lsa gapirmang, e'tiqodsiz ekansiz .
- Nima deyapsiz? Ularning kamida ikkitadan vijdoni bor.
- Eh, do'stlarim, siyosatga to'yib ketgan asrdan nimani ham kutasiz?-dedi Natan. – ”Bogemiya qiroli va uning yetti qasri”day ajoyib qissaning taqdiri nima bo'ldi-yu!
- Nima? – stolning narigi chetidan qichqirdi Bilimdon.
- Axir bu asar zo'rma-zo'raki jumlar yig'indisi-ku, jinnixona uchun yozilgan-ku?
- Ahmoq!
- Ovsar!
- O-ho!
- A-ha!
- Ular hozir urishishadi.
- Yo'q.
- Ertagacha muhtaram afandim.
- Hozir ham tayyorman. - dedi Natan.
- Qo'ysanglar-chi! Ikkalangiz botir ekansiz.
- Lekin, siz botir emassiz, - dedi janjal boshlovchi.
- Ammo ikkalasi ham oyoqda turolmaydi.
- Eh, rostdan ham oyoqda turolmaydiganga o'xshayman!-dedi urushqoq Natan, varrakka o'xshab shox tashlar ekan...

Tarjima yuksak badiiy ijoddir. Ijod bo'lganda ham , ba'zan original avtoridan ko'proq izlanish, mehnat talab qiladigan ijoddir. Chunki avtor o'zi ijod qilayotgan til va adabiyot doirasida erkin qalam tebratadi.

Tarjimon esa o'zga tilda yaratilgan badiiyatni o'z tilida qayta aks ettirishi, original tilning o'zigagina xos bo'lgan ayrim xususiyatlarni bu tilda qayta yaratish yo'llarini izlashi lozim. Masalaning bu tomoni tarjimonning mahoratiga borib taqaladi. Demak, asarni ikkinchi bir tilga bir necha tarjimon o'girganda shubhasiz bir necha asar paydo bo'ladi.

Tarjima asarining muvaffaqiyati esa mutarjimning mahoratiga bog'liq, shuning uchun ham tarjima san'atidir.

Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek Onore de Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" romani rus tarjim Grifsova tomonidan birinchi bor rus tiliga tarjima qilindi va shundan so'ng bu asarni 1981-yilda "Sag'ri teri tilsimi" nomi bilan o'zbek tiliga Mirzoidov tarjima qildi va uni qayta "Muhabbat tilsimi" nomi ostida 2010-yil M.Mahmudov qayta tarjima qildi.

Mahkam Mahmudov asarni tarjima qilishda undov gaplarni o'z urnida ishlatilishiga katta e'tibor berdi va tarjimani chiroyli chiqishiga harakat qildi.

Masalan:

Fransuz tilida:	Rus tilida:	O'zbek tilida:
Vous êtes un sot!	Дурак!	Axmoq!
Vous êtes un drôle !	Болван!	Ovsar !
Oh ! Oh !	Ого!	O-xo !
Ah ! Ah !	Ага!	A-xa !
À demain, monsieur.	До завтра милостивый государь!	Ertagacha, muxtaram afandim.

II, bob. Adibning “Sag’ri teri tilsimi” romanining o’zbek tilida.

Jahon adabiyotida hayotni, inson ruhiy olamini haqqoniy, bor murakkabliklari bilan tasvirlovchi realizm oqimining yetakchi san’atkorlaridan biri Onore de Balzakning «Sag’ri teri tilsimi» (Le peau de chagrin) romanida istidodli yosh yegitning shodlik va qayg’ularga boy g’aroyib taqdiri tasvirlanadi. Yosh shoir, olim Rafael hayotga falsafiy qaraydi, buyuk asarlar yozishni orzu qiladi, ammo g’o’zal, toshbag’r bir aslzoda qizni qattiq sevib qolib, unga erishish yo’lida Arshi a’loga boruvchi musaffo ruhini do’zaxiy yo’lga boshlab, xudbinlikka berilib, umrini xazon qiladi.

Realistik va romantik ruhdagi bu roman yosh avlodni hayot yo’lida ko’tayotgan chiroyli, maftunkor ko’rinuvchi turli gunohlar va tuzoqlardan ogohlantradi.

Balzakning falsafiy «Sag’ri teri tilsimi» romani (1831) burjua dunyosining vaxshiy qonunlari haqida fantastik tarzda hikoya qiladi.

Mutaxassislar «Muhabbat tilsimi»ni falsafiy romanlar turkumida talqin qiladilar.

Asarda XVII asr yozuvchisi L. Sternning «Tristram Shendi, jentelmenning hayoti va mulohazalari» romanidagi so’zlarni epigraf qilib olish orqali yozuvchi avvalgi romanlarida bu qadar aniq ko’zga tashlanmagan fantastik sarguzasht asarlar sirasiga qo’l urayotganini eslatadi.

Biroq bu asar garchi fantastik yo’nalishda yozilgan bo’lsa ham Artur Konan Doylning mashhur izquvar asarlaridan mutloqo farq qiladi.

Falsafiy etyudlar «sifatida tavsiya etilgan romanning boshidayoq yozuvchi tilsimli xabar beradi. Asar qahramoni Rafael de Valentin buyuk iste’dod egasi. U kecha-kunduz o’z ilmiy ishi ustida bosh qotiradi. Rafael o’z qobilyati bilan butun Parijni zabt etmoqchi, shuhrat


qozonmoqchi. Ammo uning ishlari yurishmaydi. Sevgan ayoli sevgisini rad qiladi.

Butunlay tushkunlikka tushgan Rafael o'zini Sena daryosiga tashlab o'ldiormoqchi bo'ladi. Ammo bu ishni biroz paysalga solib, eski nodir-noyob buyumlar saqlovchi chol antikvarning do'koniga kerib tomosha qiladi.

Yigit va yo'l boshlovchi cholning o'zaro munozarasi orqali sag'ri teriga e'tibor tortiladi. Bu teri faqatgina qimmat bahoda sotishga mo'ljallangan tovar yoki yuksak san'at asari emas, balki qahramonning hayotiga, qismatiga dahldor unsur bo'lib chiqadi.

Arab yozuvidagi ilohiy so'zlar bitilgan sirli lavhani o'qigan qahramonga antikvarchi chol hayrat bilan tikildi.

Terida sirli so'zlar mana bunday tartibda joylashtirilgan edi:



Ce qui voulait dire en français :

SI TU ME POSSEDES, TU POSSEDERAS TOUT.

MAIS TA VIE M'APPARTIENDRA. DIEU L'A

VOULU AINSI. DESIRE, ET TES DESIRS

SERONT ACCOMPLIS. MAIS REGLE

TES SOUHAITS SUR TA VIE.

ELLE EST LA. A CHAQUE

VOULOIR JE DECROITRAI

COMME TES JOURS.

ME VEUX-TU?

PRENDS. DIEU

T'EXAUCERA.

SOIT !

Ularning manosi shunday edi:

”Mening egam hamma narsaga ega bo'ladi, ammo uning joniga men ega bo'laman. Tangri irodasi shu. Istaganingni tila, ijobat bo'lg'ay. Lekin tilagingni hayotingga mosla. Joning menda. Har-bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayib boraman. Menga ega bo'lishni istaysanmi, ol. Tangri senga yor bo'lsin. Omin!”

Demak, tilak va unga yetishish uchun imkon beriladi qahramonga. O'z tilagiga yetishishning yo'lini o'zi tanlashi kerak, biroq tilak tilagan sari uning umri ham kamayib boradi.

Qahramon vaqtincha bo'lsada umrini cho'zish maqsadida bu shartga rozi bo'ladi. Rafael terini qo'lga olishi bilan ishlari yurishib ketadi. Do'stlari ko'payadi, jurnallar uning asarlarini bosishga kerishadi. Avval yigitning sevgisini rad qilgan zodogon ayol Feodora endi Rafael yoniga kelib unga sevgi izhor qiladi. Ammo Rafael uning sevgisini rad qiladi. Tez orada yigit boyib ketadi. Uning barcha orzulari amalga oshmoqda. Shu bilan birga, terining hajmi ham tobora qisqarib bormoqda. Bir vaqtlar o'zini-o'zi o'ldirmoqchi bo'lgan Rafael endi, ajal ko'ziga ko'rinib turganda, bu fikridan qaytadi. Barcha xohish-istaklarini to'xtatishga, odamlardan yiroqlashishga urinadi.

Qahramon terining hajmini kengaytirish, hech bo'lmasa, uning qisqarishini to'tatish maqsadida zamonasining mashhur olimlari bo'lgan fiziklarga, kimyogarlariga murojaat qiladi. Ammo hech kim sirli terining qisqarish jarayonini to'xtata olmaydi. Nihoyat, sag'ri terisi qisqarib tamom bo'ladi. Rafael o'ladi.

Sag'ri terisi insonni halokatga mahkum etgan tuzumning ramziy obrazidir. Shunday qilib burjuaziya jamiyati o'z qatoridan chiqrib tashlagan kishi muqarrar o'limga duchor bo'ladi. Bordi-yu u kishi o'z umrini biror muddatga cho'zar ekan, bu tasodifiy bir narsa. Ammo halokatga yuz tutgan kishini suyak qoladigan hech qanday kuch yo'q. Zotan, Rafael sag'ri terisiga ega bo'ldi-yu, ammo baxtli bo'lmadi. Aksincha, u o'zidagi insoniy fazilatlardan, odamgarchilik xususiyatlaridan mahrum bo'ladi. O'z hayotini doimiy havf-xatar tahlikasi ostiga qo'yadi.

Balzakning buyuk xizmati shundaki, u "Inson komediyasi" epopeyasiga kirgan ajoyib ijtimoiy romanlarni yaratdi. Bu asarlarida fransuz hayotining barcha tomonlarini qamrab oldi. Adib yaratgan epopeya qahramonlarining hayoti muallif hayotining mazmuniga aylanib ketdi. Bu ulkan polotno sahifalarida shoirlar va rassomlar,

savdogarlar va amaldorlar, millionerlar va surgunga mahkum etilgan mahbuslar, yuqori doira vakillari bo'lgan ayollar va aktrisalar, ministrlar va soldatlar, olimlar va do'kondorlar, dehqonlar va pomeshchiklar, sanoatchilar va hunarmandlar qisqasi aslo tinim bilmaydigan odamlar okeani harakat qiladi. Bu ummon qa'rida, son-sanoqsiz tasodiflar, ofatu-falokatlar va muvaffaqiyatlar girdobida Balzak ana shu ummonni harakatga keltiruvchi kuchlar qonunini axtaradi.

Bu dunyoning egalari mol-dunyo to'plash vasvasasiga uchragan jinoyatkor shaxslar. Bu yerda ming xil jinoiy nayranglar bilan o'z millionlarini jamg'argan Tayfer, "birja dunyosining Napoleoni" bo'lmish Nusingen, o'z pullarining gadosiga aylanib qolgan Gobsek va Grandelarni uchratamiz. Shon-shuhrat yo'lida hech narsadan qaytmaydigan Charl, Rastinyak, "jinoyat olamining Napoleoni" Votren, yana qancha-qancha personajlar galereyasi san'atkor qalami naqadar sehrli ekanligini ko'rsatadi.

Burjuaziya jamiyati kishilar orasida odamgarchilik rishtalarini uzib tashladi. Bozor va birja, siyosat va san'at, zodagon xonadoni va birja uyi hammasi murosasiz jang maydoniga aylantirildi. Insonning barcha tabiiy aloqalari, oila a'zolari orasidagi munosabatlar hisob-kitob evaziga pul asosiga ko'chirildi. Burjua oilasida daxshatli keskin fojialar har qadamda yuz beradi. Nikoh oldi-sotdi vositasiga aylangan. Er xotinni aldashga, xotin esa urning boyliklarini o'g'irlashga harakat qiladi. Merosni egallab olish maqsadida qarindoshlar orasida o'ta xudbin xatti-harakatlar, hiyla-nayranglar ishga solinadi. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasida adovat va dushmanlik avjiga minadi.

Balzak qahramonlaridan biri, advokat Dervil o'z suhbatida cherdakda jon berayotgan qashshoq otani, o'z bolalarini xonavayron qilgan onalarni, asta-sekin erlarini o'limga mahkum qilgan buzuq

ayollarni ko'rganligini hikoya qiladi. Bu haqiqat oldida, - deydi: advokat Dervil, - yozuvchilarning xayolot olami hech narsaga arzimay qoladi.

Balzak romani Ovrupo adabiyotida beiz qolmadi. "Muxabbat tilsimi" yozilgandan 60-yil keyin 1891 yilda ingliz adibi Oskar Uayldning "Doriyan Greyning portreti" romani yaratildi. Tabiiyki, bu romanda tasvirlangan muhit ham, mamlakat ham butunlay boshqa. Biroq Balzak romanidagi falsafiy-ramziy yo'nalish Oskar Uayld asariga asos bo'lgan. Ingliz yozuvchisining maqsadi Balzak falsafasini takrorlash, emas, balki o'z qahramoni Doriyan Greyning abadiy yoshlikka intilishi, Lord Genrining huzur-halovat falsafasi va Bezilning san'atga munosabatda fidoyiligini ko'rsatish orqali o'z tafakkuri va ijodiy falsafasini ifoda qilishdan iborat bo'ldi. Balzak romanchilik maktabi izidan yurganlarini nafaqat Ovrupoda, Amerika va Osiyoda ham realizm san'at korlari deydilar. O'z manfaati, foydasi va rohatini istash oxir-oqibatda halokatga olib borishini Balzak o'z qahramonlari taqdiri orqali mohirona tasvirlab bergan. Balzak adolatsiz jamiyat yuksak insonlarni ham ma'naviy majruh qilishini, insoniylikka zid bo'lgan iqtisodiy islohat va siyosiy nayranglar shaxs va jamiyatni tanazzulga olib borishini yuksak badiiyat va psixoanaliz* bilan yoritib bergan.

Romanda oliy tabaqa vakili, barcha mansabdorlar va mashhur (bularning ko'pchiligi qing'ir ishlar bilan mashhur) odamlarni maftun etgan, nafosat va go'zallik timsoli deb hisoblangan grafinya Feodora aslida tubanlashgan oliy jamiyatning timsoli bo'lib gavdalanadi. Roman qahramoni o'rtahol uy bekasining qizi, jismi ham, qalbi ham go'zal, kamtarin, vafodor qizning muhabbatini mensimaydi. Aniqrog'i u soxta muhabbat bilan chin muhabbatning farqiga yetmaydi. U izlagan, uni

* psixoanaliz-teran ruhiy tahlil

qiyinoqlarga solgan narsa muhabbat emas, havoyi-nafs istaklari ekani asar davomida ma'lum bo'ladi. Qahramonga esa chin muhabbatga qaytishga qiyinchiliklar tufayli erishadi, biroq endi kech bo'lgandi.

Balzak o'z romanida "inson hayoti mashinasining aniq formulasi"ni yakka vujud orqali hayotiy qilib tasvirlamoqchi bo'lgan. Roman yaratilgan 1830-31 yillar Balzak hayotida muhim o'rin tutadi. Bu davrda "Xususiy hayot sahnalari" deb nomlangan turkum asarlari allaqachonoq kitobxonlarga yetib borgan, ularning etiborini topgan, "Provinsial hayot sahnalari" turkumini esa shiddat bilan yozayotgan, adabiyot va san'at, uning zamon va jamiyatdagi o'rnini haqida mustahkam xulosaga keib ulgurgan ijodiy davr edi. 1830 yilda "Siluet" jurnalida chop etilgan "Ijodkorlar haqida" maqolasida nafaqat o'z davrining mashhur adiblariga baho bergan, balki o'z asarlari xususida fikrlarini ham bayon qilib ulgurgan edi. "Biz fransuzlar o'zimizni ijodning borlig'iga butunlay otish o'rniga urush bilan juda band bo'ldik. Natijada ijodiy kuchga to'la, bizning tamaddunimiz bilan disgarmonyaga kelgan kishilarni mutlaqo tushunmadik.

Millatga abadiy shuhrat keltiruvchi kishilar faoliyatini anglab yetmaslik Fransiyada kishilarga munosib hurmatning shakllanmaganligiga olib keladi. Fikrlayotgan inson hukmron bo'lishi zarur bo'lgan jamiyatda qirollar halqlar ustidan ma'lum muddatdagina hukmronlik qiladilar, badiiy asar esa asrlarga o'z hukmini o'tkaza oladi. U narsalarning tusuni o'zgartiradi, inqilobga jo'nlik tusuni beradi, yer ishlarida samo hukmini ko'radi va inson qarashlarini shakllantradi. Rafael, Volter, Shvars shunday edilar. Bu ijodkorlarning hammasi o'z fikrlarini inson kuch-quvvatini yangicha talqin qilishga, tabiat unsurlariga yangicha qarashga va tabiiy dunyo bilan ma'naviy dunyoni uyg'un ko'rishga o'rgatdilar".

Jahon adabiyotida Balzakka ergashgan yozuvchilarni Ovrupoda, Osiyo va Afrikada ham uchratish mumkin. Biroq uning yo'lidan yurganlar Balzak asarlarining sovuq taqlidchisiga aylanib qolmadi, balki o'z millatining falsafasi, shuuri va ruhini yaratishda, milliy o'zligini topishda Balzak tajribasiga tayandilar, holos. Markaziy Osiyo adiblari orasidan ham Balzakka ergashgan romanavislarni ko'plab kuzatish mumkin.

“Tarjimon, - deb yozadi tarjimashunoslarimiz – asl nusxa harflarining xuddi o'zginasini ko'chiruvchi mexanik tilmoch emas, balki avtorning ongli xodimi, uning fikrlarini yangi kitobxonga yetkazuvchi jarchidir”.

Ma'lumki “Muhabbat tilsimi” faylasuf yozuvchi va noziktab olim hamda tajribali mutarjim Mahkam Mahmudov tomonidan tarjima qilingan. Asarni o'qir ekanmiz, bir zum uning tarjima asari ekanini va olis farang asilzodalar jamiyatida yuz berayotganini unutib, roman voqealariga aralashamiz, qahramonlar xatti-harakatlari va o'ylarini o'zimizcha baholaymiz. Agar tushunishdan ba'zi o'rinlarga ojiz qolsak tarjimon bizga yordamga keladi.

Tarjima yuksak badiiy ijoddir. Ijod bo'lganda ham, ba'zan original avtoridan ko'proq izlanish, mehnat talab qiladigan ijoddir.

Balzakning “Sag'ri teri tilsimi” asaridan keltirilgan parchalar tarjimasiga to'xtalamiz:

Première partie : Le Talisman

Un après-midi d'octobre 1830, un jeune inconnu pénètre dans une maison de jeu, située dans les jardins du Palais Royal, à Paris. Le jeune homme vient jouer sa dernière pièce d'or. Il perd et décide d'en finir avec la vie. Il longe la Seine . Se noyer en plein jour le rebute. Il préfère attendre la nuit pour rendre son

suicide plus mystérieux. Il admire une jeune femme, riche et belle, qui disparaît dans son superbe équipage.

Il souhaite conserver « cette dernière image du luxe et de l'élégance » .

L'inconnu marche quai Voltaire et entre dans un magasin d'antiquités. Il souhaite attendre la nuit et décide pour passer le temps de marchander quelque objet d'art. Lorsque surgit l'antiquaire, personnage énigmatique, le jeune homme finit par avouer ses intentions et sa volonté d'en finir avec la vie.

Le vieil homme lui montre alors « une peau de chagrin » ayant le pouvoir d'exaucer tous les vœux de son propriétaire : « *Si tu me possèdes, tu possèderas tout, mais ta vie m'appartiendra* ». Le vieillard met en garde le jeune homme : chaque désir exaucé fera diminuer la taille de cette peau, symbole de sa vie : « *Le cercle de vos jours, figuré par cette Peau, se resserrera suivant la force et le nombre de vos souhaits, depuis le plus léger jusqu'au plus exorbitant* ». Le jeune homme accepte ce pacte diabolique, sans bien mesurer les mises en garde de l'antiquaire.

L'inconnu marche quai Voltaire et entre dans un magasin d'antiquités. Il souhaite attendre la nuit et décide pour passer le temps de marchander quelque objet d'art. Lorsque surgit l'antiquaire, personnage énigmatique, le jeune homme finit par avouer ses intentions et sa volonté d'en finir avec la vie.

Le vieil homme lui montre alors « une peau de chagrin » ayant le pouvoir d'exaucer tous les vœux de son propriétaire : « *Si tu me possèdes, tu possèderas tout, mais ta vie m'appartiendra* ». Le vieillard met en garde le jeune homme : chaque désir exaucé fera diminuer la taille de cette peau,

symbole de sa vie : « *Le cercle de vos jours, figuré par cette Peau, se resserrera suivant la force et le nombre de vos souhaits, depuis le plus léger jusqu'au plus exorbitant* ». Le jeune homme accepte ce pacte diabolique, sans bien mesurer les mises en garde de l'antiquaire.

En sortant de chez l'antiquaire, le jeune inconnu rencontre par hasard trois de ses amis qui justement étaient à sa recherche. Nous découvrons l'identité du jeune homme qui a pour nom Raphaël de Valentin.

Ses amis lui indiquent qu'ils se rendent chez un banquier qui a décidé de fonder un nouveau journal. Suite à la révolution de juillet 1830, ils souhaitent que ce journal puisse tout à la fois satisfaire les mécontents tout en préservant les intérêts de la grande bourgeoisie.

